

O‘ZBEK XONLIKLARIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOT XONLIKDA YER EGALIGI VA SOLIQ TIZIMI

Akmaljonov Akbarjon Akmaljon o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san‘at fakulteti
Tarix yo‘nalishi talabasi
Akmaljonovakbarjon2001@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek xonliklarida yashovchi aholining asosiy mashg‘ulotlari, xonliklarimizdagi Ijtimoiy-iqtisodiy hayot haqida so‘z boradi. Yurtimiz tarixi juda boy. O‘rta asrlar tarixi esa tariximizning boshqa davrlaridek muhim hisoblanadi. Ushbu maqoladahan o‘zbek xonliklari tarixi, ularda hukmron qilgan sulolar, ushbu davlatlar atroflicha tahlil qiligan. O‘ylaymanki, ushbu maqolani o‘qib o‘ganib chiqqan tarix faniga qiziqqan barcha o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: O‘rta asrlar, Ijtimoiy-iqtisodiy hayot, o‘zbek xonliklari, yer egaligi, soliq tizimi, aholi, tarix

SOCIO-ECONOMIC LIFE IN UZBEK KHANIES LAND OWNERSHIP AND TAX SYSTEM IN THE KHANIES

Abstract: This article talks about the main occupations of residents of Uzbek khanates, socio-economic life in our khanates. The history of our country is very rich. The history of the Middle Ages is as important as any other period in our history. In this article, the history of the Uzbek khanates, the dynasties that ruled them, and these countries are analyzed in detail. I think that reading this article will be interesting for all students who are interested in history.

Key words: Middle Ages, Socio-economic life, Uzbek khanates, land ownership, tax system, population, history

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ В УЗБЕКСКИХ ХАНЕСАХ ЗЕМЛЕВЛАДЕНИЕ И НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА В ХАНИЯХ

Аннотация: В данной статье рассказывается об основных занятиях жителей Узбекских ханств, социально-экономической жизни в наших ханствах. История нашей страны очень богата. История Средневековья так же важна, как и любой другой период нашей истории. В данной статье подробно анализируется история

Узбекских ханств, правивших ими династий и этих стран. Думаю, что чтение этой статьи будет интересно всем студентам, интересующимся историей.

Ключевые слова: Средневековье, Социально-экономическая жизнь, Узбекские ханства, землевладение, налоговая система, население, история.

KIRISH

Oʻrta asrlarda Oʻrta Osiyo xonliklari agrar davlatlar edi. Aholining ijtimoiy iqtisodiy ahvoli, yerga egalik tartiblari qandayligi, toʻlanadigan soliq va toʻlovlarning miqdori bilan belgilangan. Bu davrda yerlarning asosiy qismi, ayniqsa, ekin maydonlari xon, uning qarindosh va yaqinlari hamda bir qancha katta yer egalari qoʻlida boʻlgan. Aholining aksariyati katta yer egalari tegishli ekin maydonlarida mehnat qilganlar. Dehqonlar ijaraga olgan yerlari uchun bir qismi (koʻp hollarda hosilning 1/5 yoki 1/3 qismi) ni xiroj sifatida toʻlaganlar. Buxoro xonligi (amirligi)ning iqtisodiy hayotida dehqonchilik, xunarmandchilik, ichki va tashqi savdo asosiy oʻrinni egallagan. Ichki nizolar boʻlib turishiga karamay iqtisodiyotning bu sohalarida rivojlanishda davom etdi. Dehqonchilik sugʻorish bilan bevosita bogʻliq boʻlgan. Sugʻorish tarmoqlari Zarafshon va Amudaryodan chiqarilgan. Abdullaxon II ning 1583-yilda Nurota togʻlari shim. yon bagʻirlaridagi Eski Oqchob qishlogʻi yaqinida qurdirgan suv ombori qoldiqlari hozirgacha saqlangan. Shuningdek, Zarafshon daryosida Puli Karmana, Puli Mehtar Qosim va Puli Chahorminor kabi suv taqsimlagichlar qurilgan. Zarafshondan Jizzaxga Tuyatortar arigʻi chiqarilgan. Sugʻorish tarmoqlari Amir Shohmurod va Amir Haydar davrlarida ham ancha koʻpaydi, koʻchmanchilarning oʻtroqlashuvi kuchaydi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Xonlikda yer egaligining asosan 3 turi — amlok (amir .boshchiligidagi mulkdorlar guruhi ixtiyoridagi yerlar), mulk (xususiy yer egalari qarashli) va vaqf (musulmon ruhniylari, Madrasa, masjid va mozorlarga qarashli) yerlari mavjud boʻlgan. Xonlikda dehqonlar yerni asosan, ijaraga olib ishlar edi. Soliq turi va toʻlovlarning koʻpligidan, begor majburiyatidan bezor boʻlgan mehnatkash xalq tez-tez gʻalayon qilib turardi. Dehqonchilikda asosan gʻalla, paxta ekilgan. Ipakchilik koʻproq Zarafshon vodiysida rivojlangan. Chorvachilikda ot, tuya, qoramol, qoʻy boqilgan. Hunarmandchilikning koʻp turlari ravnaq topgan. Xususan, toʻqimachilik, tikuvchilik, misgarlik, zargarlik buyumlari xonlikdan tashqarida ham haridorgir boʻlgan. Shahar va yirik qishloklar aholisining talay qismini hunarmandlar tashkil etar edi. Toʻqimachilik mahsulotlari Yaqin Sharq (mas, Zandana qishlogʻida toʻqilgan zandaniychi matosi butun Sharqda mashhur boʻlgan) mamlakatlariga chiqarilgan. Hayotni tebratuvchi bu ikki yoʻnalish ichki va tashqi savdo takdirini ham belgilagan. Dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlari ichki va tashqi bozor talablarini

qondirib turgan. Xonliklar o‘rtasida savdo uzluksiz davom etgan. Ayniqsa Buxoro shahri O‘rta Osiyoning eng yirik savdo markazi sifatida mashhur bo‘lib, ko‘plab karvonsaroylarga va savdo rastalariga ega bo‘lgan.

Buxoro islom dini markazlaridan biri sifatida mashhur edi: Abdulazizxon va Abdullaxon saroyida badiiy bezakli nodir asarlar to‘plangan kutubxona mavjud bo‘lgan. Bu yerda mohir xattotlar va miniatyurachi rassomlar ishlab, qo‘lyozma, adabiyot, tarix va boshqa fanlar sohasida yaratilgan asarlarni ko‘chirish, bezash va kitob holiga keltirish bilan mashg‘ul bo‘lganlar.

Xiva xonligida ijaraga yer olgan dehqonlar “yarimchi” deb atalgan. Chunki ular olingan hosil yarmini ijara haqqi qilib to‘lagan. Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida yerga egalik qilish shakllari deyarli bir xil edi. Ular uch turdagi yer egaligidan iborat bo‘lib, amlok – davlat yeri, mulk – xususiy yerlar, shuningdek masjid va madrasalar, diniy muassasalarga qarashli – vaqf yerlari hisoblangan. Xonliklardagi yirik amaldorlar, harbiy sarkardalarga davlat tomonidan yerlar in‘om etilgan. Vaqf yerlaridan olinadigan foyda hisob kitobi va taqsimoti bilan mutavalli shug‘ullangan. Aholi soliq va to‘lovlarni mahsulot yoki pul ko‘rinishida to‘lagan. Bundan tashqari sug‘orish inshootlari, yo‘llar, ko‘priklar qursih va ularni ta‘mirlash kabi ishlarni majburiyat tarzida bajarganlar. Mehnat majburiyati aholinign ishlab berishi bo‘lib, bu begar deb ham nomlangan.

METADALOGIYA

Bu davrda aholidan xiroj, zakot, suv, tegirmon, tuz, mulk, tomorqa, bog‘ solig‘i va boshqa soliqlar yig‘ilgan. Xiva xonligida asosiy soliq solg‘ut deb atalgan. Harbiy majburiyatda har bir erkak kishi oziq ovqati, qurol aslahasi bilan qatnashishi kerak bo‘lgan. Chorvador aholi chorva mollaridan zakot solig‘i, yaylov va suvdan foydalanganligi uchun ham Bu davrda shahar aholisi hunarmad va savdogarlardan savdo puli, do‘kon puli, tarozi puli kabi soliqlar olingan. soliqlar to‘lagan. Xiva xonligida ijtimoiy hayotda xon va uning amaldorlari va diniy ulamolarning mavqei yuqori bo‘lib, iqtisodiy hayotning asosini tashkil qiluvchi yer ham, asosan, ular qo‘lida bo‘lgan. Kam yerli va yersiz dehqonlar ulardan ijaraga yer olib ishlaganlar va ularning ahvoli juda og‘ir bo‘lgan. Sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik mamyaakat iqtisodida muhim o‘rin tutgani uchun Amudaryodan chiqarilgan kanallarni qazish davlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan. Shuningdek, chorvachilik, hunarmandchilik, savdosotiq ham iqqisodiy hayotda muhim o‘rin tutgan. Xonlik harbiy qo‘shini va qurol aslahasini yaxshilash juda past darajada bo‘lgan. Qo‘shinni ko‘proq yarim ko‘chmanchi turkmanlar tashkil etgan. Oldingi davrlardagi harbiy sohadagi ijobiy tajribalar rivojlantirilmay tashlab qo‘yilgan. Xiva xonligi Buxoro, Qo‘qon, Eron va Rossiya kabi qo‘shni davlatlar bilan savdosotiq ishlari olib borgan. Soliqdar barcha musulmon davlatlaridagidek xiroj, zakot, boj va juz‘yadan iborat bo‘lgan. Shu bilan

majburiy mehnatning ba’zi turlari amalga oshirilgan. Sug’orish tizimi va tartiblari. O’rta Osiyo hududi va uning iqlimi qishloq xo’jaligi mahsulotlari yetishtirishga qulay bo’lgan. Bu soha taraqqiyoti sug’orish ishlarining holati va suv ta’minotining qay darajada ekanligiga bog’liq edi. Shuning uchun ham sug’orish va suv ta’minoti sohasi O’rta Osiyoda muhim hamda davlat ahamiyati darajasiga ko’tarilgan. Qolaversa, xazingaga tushadigan asosiy daromadni dehqonlardan yig’iladigan soliqlar tashkil qilgan.

Har bir hududda aholi va ma’muriyat vakillari sug’orish sohasiga mas’ul va javobgar bo’lgan. Sug’orish ishlarini yuritish va nazorat qilish bilan bu sohaning mutaxasislari – miroblar shug’ullanganlar. Ular sug’orish ishlari, suv inshootlarinign qurilishi, ta’minoti, ta’mirlanishi, tozalanishi suv ta’minotini yaxshi bilgan kishilar bo’lgan. O’rta Osiyoda sug’orish tizimi qadimdan rivojlanib kelgan soha hisoblanadi. Mazkur ishlar asosan keng xalq ommasi tomonidan hashar yo’li bilan bajarilgan. Aholisi asosan sug’orma dehqonchilik bilan shug’ullangan Farg’ona vodiysida sug’orish tizimiga katta e’tibor qaratilgan. Vodiy hududida yirik sug’orish inshootlari – Shaxrihonsoy, Andijonsoy, Marg’ilonsoy, Yangiariq, Ulug’nor, Qoradaryo kabilar bo’lgan. Suv chiqishi qiyin bo’lgan joylarga maxsus qurilmalar – chig’irlar yordamida suv chiqarilgan. Amudaryo, Sirdaryo suvlari turli sun’iy sug’orish tizimlari – kanallar hamda uning bo’ylariga qurilgan to’g’onlar orqali ekin maydonlariga yetkazilgan. Bu hududda yetishtirilgan qishloq xo’jaligi mahsulotlarini asosan paxta va donli ekinlar tashkil qilgan. Bundan tashqari bog’dorchilik, uzumchilik, poliz va sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan. Hunarmandchilik va savdo-sotiq. O’rta Osiyo xalqlari hayotida hunarmandchilik muhim o’rin egallab aholinign dehqonchilik, chorvachilik va savdo sotiq bilan shug’ullanadigan qatlaminign hayoti ham bevosita hunarmandchilik bilan bog’liq bo’lgan. Chunki har bir dehqon va chorvador hunarmandchilik buyumlaridan foydalangan holda mehnat qilgan, ayni vaqtda ular hunarmandchilikning turli sohalari uchun xom-ashyo yetkazib bergan. Savdogarlar esa hunarmandchilik mahsulotlari bilan savdo sotiq qilgan. O’rta Osiyo davlatlarida ko’plab hunarmandchilik markazlari bo’lib, ular mahalliy xususiyatlarga ko’ra turli hunarmandchilik sohalariga ixtisoslashgan. Masalan, Marg’ilonda atlas to’qish, do’ppichilik, Rishtonda kulolchilik, Buxoroda zargarlik, Shahrixonda pichoqchilik, do’ppichilik, duradgorlik, Chustda ham do’ppichilik, pichoqchilik, Qo’qonda temirchilik, duradgorlik, zargarlik, Samarqandda zargarlik, Xivada me’morchilik, ganchkorlik rivojlangan. Buxoro amirligida bu davrda kulolchilik, temirchilik, miskarlik, zardo’zlik, shishasozlik, kandakorlik, badiiy kashtachilik sohalari keng tarqalgan. Xonliklarda temir mahsulotlariga ehtiyoj katta bo’lganligi bois metalga ishlov beruvchi mahalliy temirchilik sohasi rivojlangan. Hunarmandlar tomonidan asosan mehnat qurollari, xususan dehqonchilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar,

kiyim – kechaklar, zeb ziynatlar, idish tovoqlar, chorvadorlar foydalanadigan buyumlar tayyorlangan. O‘rta Osiyo xalqlari o‘rtasida azaldan hunarmandlarga hurmat bilan qaralgan. Hunar egallash va bu kasbga munosib bo‘lish yaxshi fazilat hisoblangan. Xalq orasida “hunardan unar”, yigit kishiga 40 hunar ham oz, hunari bor kishi xor bo‘lmas kabi hikmatli so‘zlar bejiz tarqalmagan.

Hunarmandchilik, xonadon va kasanachilik ko‘rinishidagi mayday ustaxonalardan iborat bo‘lib, unda asosan qo‘l mehnatidan foydalanildan. Hunarmandchilik mahsulotlar mahalliy aholi ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, balki savdogarlar tomonidan chetga ham olib borilgan. O‘rta Osiyo savdogarlari Eron, Xitoy, Hindiston, Afg‘oniston, Rossiya davlatlari va qozoq juzlari bilan savdo-sotiq qilganlar. O‘rta Osiyolik savdogarlar mahalliy mahsulotlarni chetga olib borib, u yerlardan zarur mollarni olib kelganlar. Xorijda hunarmandlarni zargarlik mahsulotlari, shoyi va atlas matolari, kulolchilik buyumlari yuqori baholangan.

NATIJALAR

Qo‘qon xonligi ham boshqa xonliklardan ko‘p ham farq qilmagan. Qo‘qon xonligining aholisi, asosan, o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, qozoqlar, uyg‘urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi. Qo‘qon xonligida ham yerga egalik qilish va undan foydalanish turli xil bo‘lgan. Xonlikka qarashli bo‘lgan yerlar am-lok yerlar, vaqf yerlari, mulki xi-roj va mulki ushriyaga taqsimlangan. Dehqonlar o‘rtasida yakka dehqon xo‘jaligi ham rivojlangan. O‘z yerlaridan ajralgan kambag‘al dehqonlarning ko‘pchiligi yirik yer egalari qo‘lida chorakorlik qilganlar. Yerning bahosi uning unumdorligi va qanchalik suv bilan ta‘minlanganligiga qarab belgilangan. Xonlar sug‘orish tarmoqlari katta daromad manbai bo‘lganligi sababli ma‘lum darajada ularni saqlashga, sug‘orish inshootlarini yanada kengaytirishga yaxshi e‘ti-bor berishgan. Qo‘qon xonligida ko‘plab paxta va poliz ekinlari yetishtirilgan, bog‘-dorchilik hamda pillachilik taraqqiy etgan. Hunarmand-kosibchilik mazmunan boy va serqirra bo‘lgan. Bular: misgarlik, zargarlik, o‘ymakorlik, harbiy qurol ishlab chiqarish, sopol va ko‘zagarlik, qog‘ozgarlik, badiiy to‘qimachilik, do‘ppichilik, kashtachilik, ko‘priksozlik, temirchilik va shahrik. Savdo-sotiq Qo‘qon xonligi hayotida katta va muhim o‘rin egallagan. U ichki va tashqi savdoga bo‘lingan. Osiyo xonliklarida ichki savdo, asosan, qad. davrdan beri o‘zaro ko‘chmanchi chorvador, o‘troq dehqonlar va shahar-qishloq hunarmandlari mahsulotlariga asoslangan edi. Aholi o‘zining ehtiyojlarini asosan o‘z xonligidagi mahsulotlar bilan qondirishgan.

Qo‘qon xonligining iqtisodiy hayotida Buxoro, Xiva, Qashqar, Hindiston, Afg‘oniston, Eron va ayniqsa, Rossiya bilan bo‘lgan tashqi savdo katta o‘rinni egallagan. Rossiya bilan olib borilgan savdo munosabatlari Qo‘qon xonligi qishloq xo‘jaligi ayrim tarmoqlarining rivojlanishiga olib keldi va rus madaniyatining ba‘zi

jihatlarini aholi turmush tarziga kira boshladi. Qo‘qon xonligi Rossiyaning xom ashyo bazasiga va tashqi savdo bozoriga aylana bordi. Rossiya sanoati tovarlarining olib kelinishi mahalliy sanoat korxonalarini va ayrim hunarmandlarning inqirozga uchra-shiga sabab bo‘ldi. Bu davrda O‘rta Osiyodagi ichki va tashqi savdoning yanada jadal rivojlanishiga 3 ta davlat o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, ichki nizolar va notinchliklar salbiy ta‘sir ko‘rsatgan.

Xulosa

Insoniyat yaralibdiki, o‘zini, atrof-muhitni anglashga harakat qiladi. Tarix fani insoniyatga uning o‘tmishi, kelajagi haqida ma‘lumotlar beradi. Tarix fani – insoniyatning butun o‘tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo‘lgan voqea-hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda o‘rganadi. Tarix fani ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, san‘atshunoslik va boshqalar) tizimining tarkibiy qismi. Tarix fanining bu guruhdagi o‘rni uning tadqiqot predmeti va usullari bilan belgilanadi. Turli ijtimoiy va gumanitar fanlar jamiyat hayotining alohida jihatlarini o‘rgansa, tarix fanining tadqiqot ob‘yekti – aholi, jamiyat, mamlakat, davlat hayotining o‘tmishi va hoziri haqidagi faktlarni yig‘ish, taxlil qilish, to‘plangan bilimlarni ma‘lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan umumlashtirishdir. Tarix fani o‘tmishda sodir bo‘lgan jarayon va hodisalar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantig‘i va ma‘nosini ko‘rish imkonini beradi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tarix tadqiqotlari natijalariga tayanadi. Fanlararo yondashuv jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirib, o‘tmishni va hozirni anglash orqali jamiyat rivoji istiqbolini ko‘ra bilishdek muhim vazifani xal qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mamadaliyev Xushnodbek. Farg‘ona vodiysi shaharlari tarixi (XIX – XX asr boshlari). «Fan ziyosi» nashriyoti, 2022 — 29 bet.
2. Ш. ВОҲИДОВ. КУКОН ХОНЛИГИДА ТАРИХНАВИСЛИК. Тошкент Akademnashr 2010 — 83-85 bet.
3. Юсупов, Х. Путеводитель по археолого-архитектурным памятникам Ташаузской области. Ашхабад, 1989 — 40 bet.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-jildlik. Toshkent.
5. Vatan tarixi. R.Shamsutdinov. Sharq 2016. Toshkent.